

Uzbekistan Airways Boshqaruvi raisi aviakompaniyaning yosh xodimlari bilan uchrashdi

2025 2 Oktabr

Uzbekistan Airwaysda kadrlar salohiyatini rivojlantirish va yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. 29-sentabr kuni "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruv raisi Shuxrat Xudaykulov aviakompaniyaning barcha tarkibiy bo'linmalari vakillari ishtirokida yoshlari bilan uchrashuv o'tkazdi.





Yosh xodimlar o'zlarini qiziqtirgan savollarni to'g'ridan-to'g'ri berish va takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lidilar. Shunday qilib, Uzbekistan Airways marketing bo'limi xodimi shunday dedi: "*Biz uchun aeroport ichidagi bo'linmalar faoliyati bilan tanishish va har bir aviaqatnovga tayyorgarlik qanday tashkil etilganini bilish foydaliroq bo'lardi.*"





Shuxrat Xudaykulov tashabbusni qo'llab-quvvatladi: "Siz juda muhim taklif berdingiz. Har bir jarayonni to'liq tushunish bizga faqat foyda keltiradi. O'zim ham turli lavozimlarda, jumladan, tijorat yo'nalishida ishlaganman va "ish muhitini his qilish" qanchalik muhimligini yaxshi tushunaman. Sizning taklifingiz tegishli tuzilmalarga yetkaziladi."



Uzbekistan Airways Technics xodimi yana bir taklif bildirdi: "Agar lavozimga tayinlashda sohaning o'zidagi yosh mutaxassislarga ko'proq ustunlik berilsa, biz xursand bo'lardik."



Bunga Boshqaruv raisi shunday javob berdi: "Albatta, bu juda oqilona. Sohani biladigan, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, shijoatli kadrlar rahbar bo'lishi muhim. Aviakompaniyamizda mehnat qilib, vaqt o'tishi bilan rahbarlik lavozimlarini egallagan mutaxassislar yetarli."



Ochiq muloqotda malaka oshirish, imtiyozli aviachiptalar taqdim etish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, kasaba uyushmalari faoliyati bilan bog'liq masalalar ham muhokama qilindi. Suhbatda Uzbekistan Airways Technics, Catering, O'quv-mashg'ulot markazi va Silk Avia bo'linmalarining yosh xodimlari faol ishtirok etishdi. Ularning savol va takliflariga nafaqat Boshqaruv raisi, balki uning o'rindbosarlari ham javob berishdi.



Shuxrat Xudaykulov aviakompaniyaning umumiy muvaffaqiyati uchun har bir xodimning hissasi qadrli ekanligini ta’kidladi: “Uzbekistan Airways doimo muloqot uchun ochiq. Bunday uchrashuvlar muntazam o’tkazilib, har bir taklif diqqat bilan o’rganiladi. Axir aynan sizning g’oyalaringiz bizga rivojlanish va oldinga intilishimizga yordam beradi.”